



## O'ZBEK TILI DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IMKONIYATLARI

**Imamova Gulxasem Turg'anbay qizi**  
*Nukus davlat pedagogika instituti*  
*Boshlang'ich fakultet talabasi*

**Annotatsiya:** *Ta'lim jarayoni deyilganda, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatidagi yaxlit jarayon ko'z oldimizga keladi. Endilikda ushbu jarayon multimediali o'quv-metodik majmualar, multimediali darsliklar, video va audio kassetalar, kompyuter dasturlari onlayn o'qitish tizimlari bilan uyg'unlashib bormoqda.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy axborot texnologiyalari, tizim, dasturlar, multimedia.*

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llanilishi mavjud bo'lgan ko'pgina tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bois, ta'lim va o'qitish jarayonlariga boshqacha yondashuv hamda e'tibor bilan qarala boshlandi. Ta'lim jarayoni deyilganda, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatidagi yaxlit jarayon ko'z oldimizga keladi. Endilikda ushbu jarayon multimediali o'quv-metodik majmualar, multimediali darsliklar, video va audio kassetalar, kompyuter dasturlari onlayn o'qitish tizimlari bilan uyg'unlashib bormoqda.

Barchamizga ma'lumki, bugun biz kompyuter texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrning ayni cho'qqisidamiz desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, kompyuterdan foydalanish har bir sohaning asosiy talabiga aylanib bormoqda: biznes, marketing, ish yuritish, mashinasozlik va hattoki, o'qitishda ham kompyuter texnologiyalaridan boxabar bo'lish davr talabidir.

Dars jarayonida o'qituvchi mavzuni tushuntirish davomida multimedia vositalari (slyd, audiomatn va shu kabilar)dan foydalansa, o'quvchining o'tilayotgan mavzuni tezroq tushunib olishiga yordam beradi, bu ilmiy jihatdan ham o'z tasdig'ini topgan, ya'ni multimedia vositalari yordamida o'tilgan dars boshqa darslarga nisbatan tezroq yodda qoladi.

Hozirda til o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish amalda keng tatbiq qilinmoqda, ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, o'zbek tilini o'qitish jarayonida til sathlari haqida ma'lumot berishda (fonetik-fonologik sath, leksik-semantik sath, grammatik sath) kompyuterdan foydalanish o'quv jarayonining yanada tushunarli bo'lishiga yordam bermoqda. Bundan tashqari, ushbu fan yuzasidan olingan bilimlarni kompyuter dasturidagi turli testlar, topshiriqlar yordamida tekshirish o'qituvchi ish faoliyatini birmuncha yengillashtiradi, sababi, topshiriqni tekshirishga ketgan vaqt, uning qog'oz variantini tayyorlashga ketgan miqdor dars jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.



Darslarda ham yangi ma'lumotlarni yetkazishdan avval o'qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slydlar, multimediya, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustahkamlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Darsda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, hayotda albatta yetuklikka yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi.

Yurtimiz ta'lim tizimida maktab fanlarini o'rgatishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish targ'ib etilmoqda. Axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiribgina qolmay, ularni o'qishga, o'rganishga, shaxsiy xususiyatlarini rivojlashtirishga va bilishga qiziqishlarini orttirishga yo'naltirishda muhim vazifa bajaradi. AKT o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, ijodiy xususiyatlari, nazariy bilimlari va reflektiv tafakkurini kengaytirishga katta ta'sir qiladi. Asosan, AKTlar o'quvchilarning obrazli fikrlashlarini orttiradi va ilmiy bilimlarni yanada osonroq, ular bilam chambarchas holda o'zlashtirishlariga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy ko'zlangan maqsad – zamonaviy ta'lim tizimini yo'lga qo'yishdir. Bilamizki, yoshlar – kelajak poydevori. Ona tili darslari esa, ta'lim jarayonlarining poydevoridir. Shunday ekan, ona tili darslari o'qituvchilarining sharaflari kasbi o'z zimmasiga muhim va mas'uliyatli e'tibor talab qiladi. Chunki, o'quvchilar yuqori sinflarda ta'lim tizimini o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich ko'nikmalarni, o'qish, yozish, hisoblashlarni yuqori darajada bilishlari lozim. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, o'quvchilarning zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma'nadan yetuk shaxs bo'lib yetishishiga, kompyuterdan erkin foydalanishga o'rgatishdan iborat. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribalar an'anaviy dars jarayonida AKTning didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonlarini individuallashtirish va differentsiyalash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ular ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi. Dars jarayonlarida tayyor multimediali dasturlar va kompyuter ta'limi dasturlaridan foydalanib turli xil taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarida qo'llash mumkin. O'quv jarayonini



yangi interfaol usullar, axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazish, masalan, dars jarayonida multimediani qo'llash, internet tarmog'idan foydalanish dars mashg'uatlarining to'la qonli o'tilishiga o'z samarasini beradi. O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- ona tili darslarida multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

- ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi;

- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;

- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Har bir o'qituvchi ijodkor va izlanuvchan bo'lishi lozim. Har bir darsiga yangilik bilan kirishi va puxta tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Negaki, o'quvchilar bir xillikdan zerikishadi va darsga bo'lgan munosabati susayadi. Natijada, darslarning samaradorligi pasayadi. O'qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalangan holdagi darslarning o'zni quyidagilarda aks etadi:

- vaqtni to'g'ri taqsimlash;



- o'quv materiali mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlash;

- berilayotgan axborot ko'lamini oshirish;
- o'quv topshirig'i turlarini kengaytirish;
- sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- kasbiy malakani muntazam oshirib borish.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalaridan foydalanish uchun dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Elektron qo'llanmalarning "Macro Media Flash", "GIF animation", "Microsoft Front Page", "Adobe Photoshop", "Microsoft Power Point" kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi qulaylik tug'dirmoqda. Chunki, ularda rangli, ovozli tasvirlar va harakatli tasvirlar yaratish ko'lami keng. Bunday dasturiy ta'minotlar o'quvchilarning darsni o'zlashtirishlarini sifatli bo'lishiga va tushunishni osonlashtirishga yordam beradi. ona tili darslari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlar o'quv jarayonida juda keng qo'llanilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алимova, Ш. А., & Ниёзова, И. Н. (2021). Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур. Academy, (1 (64)), 55-57.
2. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 712-717.
3. Abidovna, A. S. (2024). FORMATION AND DEVELOPMENT OF CAREER AS PERSONNEL TECHNOLOGY OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT. Gospodarka i Innowacje., (45), 327-332.
4. Abidovna, A. S. (2024). THE IMPACT OF E-ACCOUNTING IN MODERN BUSINESSES.
5. Raxmonqulova, N. (2024). THE ROLE OF CYBER SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY. Modern Science and Research, 3(1), 111-115.
6. Abidovna, A. S. (2023). Priority directions of analysis of channels of promotion of the main activity of the enterprise and separate communication programs. Gospodarka i Innowacje., 42, 369-374.
7. Алимova, Ш. А., & Халимова, Д. Р. (2021). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 340-344).
8. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. Gospodarka i Innowacje., 42, 375-380.



9. Raxmonqulova, N. (2024). MAIN PRIORITY DIRECTIONS OF REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 371-375.
10. Abidovna, A. S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM.
11. Alimova, S. A., & Khaitov, V. S. (2022). ON THE WAY OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN APPLICATION OF ELECTRONIC MARKETING STRATEGIES OPPORTUNITIES. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 303.
12. Alimova, S. (2023). THE CONCEPT AND TASKS OF A MODERN MANAGEMENT SYSTEM ENTERPRISE PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 2(12), 1085-1090.
13. Nafisa, R. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF MODERN MANAGEMENT TRAINING. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 265-269.
14. Abidovna, A. S. (2023). MODERN TRENDS IN MANAGEMENT STRATEGIES AND THEIR APPLICATION IN COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 326-332.
15. Alimova, S. A., & Nutfullaevna, K. M. (2022). STATE MANAGEMENT OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY OF ENTERPRISES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 75-80.
16. Alimova, S. A., & Shavkatovich, P. S. (2022). THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN ENSURING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 359-364.